



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

BADIIY OBRAZ: MOHIYAT, TASNIF VA TALQIN

Muxtorova Aziza Rashitovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, doktranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyotshunoslikning fundamental kategoriyasi hisoblangan “badiiy obraz” tushunchasi kompleks nazariy tahlil qilingan. Tadqiqotda obrazning ontologik mohiyati o‘rganilib, uning voqelikni muallifning estetik ideali prizmasi orqali ijodiy qayta shakllantirishdagi o‘rni yoritib berilgan. Muallif badiiy obrazlarni turli mezonlar, jumladan, ularning funksional, strukturaviy va mazmuniy xususiyatlariga ko‘ra tasniflaydi (obraz-personaj, obraz-simvol, obraz-detal). Shuningdek, maqolada zamonaviy adabiyotshunoslikda ushbu obrazlarni talqin qilish mexanizmlari ko‘rib chiqilgan hamda yozuvchi niyati va kitobxon idroki o‘rtasidagi dialektik aloqadorlik tahlil etilgan. Badiiy obrazning mukammalligi undagi tipiklik va individuallikning uyg‘un sintezi bilan belgilanishi haqida xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy obraz, estetik reallik, satirik obrazlar, bosh va epizodik obrazlar, adabiyotshunoslik tahlili, realistik obraz, romantik obraz, tipiklashtirish, prototip.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ОБРАЗ: СУЩНОСТЬ, КЛАССИФИКАЦИЯ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Мухторова Азиза Рашитовна

Джизакский государственный педагогический университет, докторант

Аннотация

Данная статья посвящена комплексному теоретическому анализу концепции “художественного образа” как фундаментальной категории литературоведения. В работе исследуется онтологическая сущность образа, подчеркивается его роль в творческом преобразовании действительности через призму эстетического идеала автора. Автор классифицирует художественные образы на основе различных критериев, включая их функциональные, структурные и содержательные характеристики (образ-персонаж, образ-символ, образ-деталь). Кроме того, в статье рассматриваются механизмы интерпретации этих образов в современном литературоведении, освещается диалектическая связь между творческим замыслом писателя и читательским восприятием. Сделан вывод о том, что совершенство художественного образа определяется гармоничным синтезом типического и индивидуального.

Ключевые слова: художественный образ, эстетическая реальность, сатирический образ, главные и эпизодические образы, литературоведческий анализ, реалистический образ, романтический образ, типизация, прототип.

LITERARY IMAGE: ESSENCE, CLASSIFICATION AND INTERPRETATION

Mukhtorova Aziza Rashitovna

Jizzakh State Pedagogical University, Doctoral Student

Abstract

This article provides a comprehensive theoretical analysis of the concept of the “artistic image” as a fundamental category of literary criticism. The study explores the ontological essence of the image, emphasizing its role in the creative transformation of reality through the prism of the author's aesthetic ideal. The author classifies artistic images based on various criteria, including their functional, structural, and content-related characteristics (e.g., character-images, symbol-images, and detail-images). Furthermore, the article examines the mechanisms of interpreting these images in modern literary studies, highlighting the dialectical relationship between the

writer's creative intent and the reader's perception. The findings emphasize that the perfection of an artistic image is determined by the harmonious synthesis of typicality and individuality.

Keywords: artistic image, aesthetic reality, satirical image, protagonist and episodic images, literary analysis, realistic image, romantic image, typification, prototype.

Obrazning qudrati shundaki, u konkret (yakka) va umumiy (tipik) tushunchalarni o'zida birlashtiradi. Biz asarni mutolaa qilayotganimizda, undagi qahramon timsolida ham o'zimizni, ham butun bir millatni, hatto butun insoniyatga xos bo'lgan manguilik va foniylilik kurashini ko'ramiz. Shu bois ham obraz yaratish san'ati ijodkordan nafaqat yuksak mahorat, balki inson ruhining eng qorong'u va yorug' burchaklarini ko'ra olish qobiliyatini talab etadi. Badiiy ijodning qaysi janri yoki yo'nalishi bo'lmasin — xoh u o'tkir syujetli roman, xoh hayajonli dramatik asar bo'lsin — uning hayotiyligini va ta'sir kuchini belgilovchi asosiy omil obrazdir. Obraz badiiy asarning markaziy nuqtasi bo'lib, u nafaqat inson xarakterini, balki davr ruhini, ijtimoiy muhitni va muallifning oliy maqsadini o'zida mujassam etadi. Ijodkor yaratgan qiyofa qanchalik mukammal va hayotiy bo'lsa, u kitobxon (yoki tomoshabin) ongida shunchalik uzoq yashaydi, hatto asar chegarasidan chiqib, umuminsoniy timsolga aylanadi.

San'at olamida obraz yaratish jarayoni — bu so'z, rang, ohang yoki harakat vositasida yangi bir parallel dunyoni bino qilish demakdir. Ijodkor o'z qahramonini yaratar ekan, u shunchaki qog'ozdagi ismga hayot bermaydi, balki insoniyatning kollektiv tajribasini, davrning ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarini va shaxsning ichki psixologik qatlamlarini birgina nuqtada badiiy timsolda mujassamlashtiradi.

Adabiyotshunoslik ilmining kuzatishlariga ko'ra, yozuvchi obraz yaratishda tipiklashtirishning rang-barang usullaridan foydalanadi. Bu o'rinda realizm adabiyotida keng qo'llanib kelinayotgan badiiy obraz yaratishning quyidagi ikki usuli bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Jamlash yo'li bilan obraz yaratish. Obraz yaratishning bu usuli haqida rus adabiyotshunos olimi va tanqidchisi N. G. Chernishevskiy o'zining “San'atning voqelikka estetik munosabatlari” asarida shunday yozadi: “Yozuvchi ko'pgina individual shaxslarni kuzatadi; bularning hech biri esa tip bo'lib xizmat qila olmaydi; lekin u har biridan umumiy tipik xususiyatlarni aniqlaydi; barcha tasodifiy xislatlarni chiqarib tashlab, har xil kishilarga xos bo'lgan xususiyatlarni badiiy bir butunlikka birlashtirish yo'li bilan xarakter yaratadi” [1; 40-b.]. N. G. Chernishevskiyning fikridan shuni anglash mumkinki, muallif hayotda ko'rgan, bilgan kishilarining xarakterli xislatlarini xotirasiga joylab boradi, tug'ilgan g'oyaga muvofiq tasavvuri ishga tushadi, tasavvur qalbini va ongini uyg'otadi hamda unda jamlangan materiallardan, xislatlardan, detallardan keragini tanlab olib, ularni zukkolik bilan yakka shaxsda birlashtiradiki, undan tasvirlanishga mo'ljallangan obraz qismati bilan reallashadi.

Obraz yaratishning ikkinchi usuli esa prototip asosida obraz yaratishdir. Prototip (yunoncha “protos” — ilk, dastlabki; “tupos” — namuna, nishona) badiiy obraz uchun asos, nuqta bo'ladi. Bu usulda yozuvchi ma'lum bir davrda yashagan tarixiy yoki zamondosh shaxsга tayanib obraz yaratadi, shu bilan birgalikda yuqorida ta'kidlangan obraz yaratishning barcha unsurlaridan foydalanadi. “Agar badiiy obrazni jonli organizm deb faraz qilinadigan bo'lsa, prototip shu organizmning skeleti, badiiy to'qima uning eti, estetik ideal esa qoni-jonidir. Tirik organizmning etini skeletidan, skeletini qoni-jonidan ajratib bo'lmaganidek, badiiy obraz “organizm”idagi prototipni badiiy to'qimadan, badiiy to'qimani estetik idealdan uzib olib bo'lmaydi. Ular bir-birlariga payvandlashib, qo'shib-chatishib ketadi” [2; 52–53-b.].

Bunday obrazlarga misol qilib, XX asr o'zbek romanchiligining asoschisi A. Qodiriyning “O'tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari qahramonlaridan biri Qo'qon xoni Xudoyorxon, O. Yoqubovning “Ulug'bek xazinasi” romanidagi Mirzo Ulug'bek, “Ko'hna dunyo” romanidagi Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Mahmud G'aznaviy kabi obrazlarni olishimiz mumkin. Obraz yaratishning bu ikki usuli o'rtasidagi farq va mushtaraklik to'g'risida adabiyotshunos olim

Laziz Qayumov shunday yozadi: “Bu ikki usulning bir-biridan farqi shundaki, jamlash yo‘li bilan yaratilgan obrazlarning zaminida konkret tarixiy shaxslar emas, balki umuman inson faoliyati tursa, prototipli obrazlarning poydevorini aniq tarixiy shaxslar egallaydi. Bu ikki usul o‘rtasidagi mushtaraklik shundaki, yozuvchi obraz yaratishda, umuman, qanday usuldan foydalanishidan qat’i nazar, hayotni obrazli ifodalaydi. Haqiqiy san’atkor qalamiga mansub bo‘lgan har bir obraz o‘zining xatti-harakati, qiliq va odati, o‘y-fikri, orzu-intilishi, bajargan ishi bilan tamomila tipik va shu bilan birga konkret, aniq shaxs sifatida kitobxonning ishonchini qozonadi. Shunga ko‘ra, bunday obrazlar mutlaqo hayotiy bo‘lib chiqadi” [3; 13-b.].

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki, jamlash va prototip asosida yaratilgan obrazlarning jamini adabiyotshunoslik fani shartli ravishda turlarga bo‘lib o‘rganadi. Rus adabiyoti vakillaridan biri Lev Tolstoy tili bilan aytganda: “Odamlar daryodek gap: hammasining suvi bir xil, hamma joyda o‘sha suv, lekin daryo goh keng bo‘ladi, goh tor, goh sekin, goh suvi tiniq bo‘ladi, goh loyqa, goh sovuq, goh iliq bo‘ladi. Odamlar ham shunday”. Shu sababdan ham badiiy obrazlar nihoyatda rang-barang, turfa xildir. Adabiyotshunoslikda badiiy obrazlar quyidagi ilmiy tamoyillar asosida tasnif qilinib o‘rganiladi.

1. Realistik obrazlar. Xarakter xususiyatlari va faoliyati hayotdagi real odamlarga mos keladigan tarzda umumlashtirib va aniqlashtirib, tipik sharoitda haqqoniyashtirib yaratiladigan obrazlarga realistik obrazlar deyiladi. Bunday obrazlarda ro‘y-rostlik, chinlik yorqin ifodasini topadi. O‘zbek mumtoz adabiyotida yaratilgan obrazlarning aksariyati romantik obrazlar bo‘lsa, XX asr o‘zbek adabiyotining asosiy qahramonlari realistik obrazlardir. Jumladan, XX asr o‘zbek adabiyoti nasrida samarali ijod qilgan ijodkorlardan biri Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor” romani qahramonlari Hotam Sho‘ro, Qurbonoy va g‘o‘zashunos olim Aleksandr Shoymardonovichlar realistik obrazlardir. Chunki bu obrazlar yordamida muallif sho‘rolar davri siyosatining salbiy oqibatlarini, bu siyosat ortidan ko‘r-ko‘rona ergashgan shaxslar fojiasini, shuningdek paxta siyosatining jamiyat va shaxslar hayotida qoldirgan og‘riqli nuqtalarini va bu fojidan o‘rni kelganda o‘z manfaati yo‘lida unumli foydalanishni ko‘zlagan ikkiyuzlamachi insonlarning asl qiyofasini ko‘rsatib berishga harakat qilgan.

2. Romantik obrazlar. Bu obraz turida yozuvchi turmush haqidagi orzu va umidlarini tasvirlaydi. Bunday obrazlar, garchi yozuvchi yashab turgan jamiyatda bo‘lmasa-da, yozuvchi orzu qilgan voqelikning ifodasi hisoblanadi. Bunday obrazlar yuksak ko‘tarinki ruhda, jismoniy jihatdan ham, ma’naviy jihatdan ham kuch-quvvatga, mo‘jizaga ega qilib tasvirlanishi mumkin. Jumladan, jadid adabiyoti namoyondalaridan biri, hurlik kuychisi Cho‘lpon she’riyatini olaylik. Uning asarlaridagi obrazlar nafaqat insoniy sevgi, balki erkinlik ishqida yonadi. Uning “Binafsha” yoki “Tong yulduzi” she’rlaridagi binafsha yoki tong yulduzi oddiy tabiat hodisalari emas, balki zulmatdan uyg‘onishni kutayotgan millat ruhining romantik timsollaridir. Ayniqsa, “Ko‘ngil” she’rida bu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Tiriksan, o‘l magansen,

Sen-da odam, sen-da insonsen.

Kishan kiyma, bo‘yin egma,

Ki sen ham hur tug‘ilg‘onsen [4; 46-b.].

She’rda ko‘ngil ramziy obrazi orqali shoir xalqni isyon qilishga, qullikka toqat qilmaslikka, hurlikka, ozod bo‘lishga undagan. “Tiriksan, o‘l magansen, sen-da odam, sen-da insonsen” misralari orqali esa qahramonning o‘zligini isbotlashga bo‘lgan urinishini, o‘lik sukunatga qarshi hayqirig‘ini ko‘rish mumkin.

3. Afsonaviy obrazlar. Obrazning bu turi butunlay xayoliy bo‘lib, ular bitmas-tuganmas kuch-qudratga, yuksak fazilatlariga ega bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodining yuksak namunasi bo‘lgan dostonlardagi pahlavonlar mana shunday xarakterda. “Ravshan” dostonidagi Hasanxon va kallar, “Alpomish” dostonidagi Alpomish va “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlardagi Go‘ro‘g‘li obrazi shular jumlasidandir.

So‘zimizning isboti sifatida xalq og‘zaki ijodining noyob durdonalaridan biri bo‘lgan

“Ravshan” dostonidan keltirilgan quyidagi parchani olib qaraylik: “Ana shu kampirning katta o‘g‘lining bir nonxo‘r polvoni bor edi, o‘zi juda zo‘r edi, urush-surush bo‘lsa, mingga barobar edi. U polvonning otini Aynoq kal der edi. Aynoq kal zo‘r edi. Aynoq kal shunday edi: ot, tuya va arava uni ko‘tarolmas edi, doim bir yoqqa ko‘chirmoqchi bo‘lsa, piyoda ketar edi. Ukalari ham durust edi. Jaynoq juda masxaraboz edi, har tusli bo‘la berar edi. Agar birovni aldamoqchi bo‘lsa, har tusli bo‘lganida, o‘zining jo‘ralari ham tanimas edi. Ersak kal shunday edi: oqshomlari kamonni qo‘liga olsa, qushni ko‘zidan urar edi. Juda mergan edi, qushlarning, ovlarning dodini berar edi” [5; 332-b.].

4. Satirik obrazlar. Romantik obrazlarga qarama-qarshi o‘laroq yaratilgan obraz turlaridan biri satirik obrazlardir. Agar romantik obrazlar hayotni ideallashtirsa va yuksaklikka intilsa, satirik obrazlar hayotdagi nuqsonlarni, inson tabiatidagi tubanlik, jaholat va munofiqlikni bo‘rttirib fosh qiladi. Bu kabi obrazlarda hayotdagi qusurlar ustidan zaharxanda kulgu, sarkazm va masxaralash usuli yetakchilik qiladi. Qahramonlardagi tashqi jihatdan ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin ichki jihatdan bijg‘igan, yaramas, arimas odatlar fosh etiladi. Kulgu qanchalik fosh etsa, uning mohiyati shunchalik ochiladi — qusur va yaramasliklar o‘limga mahkum etiladi. XX asr o‘zbek adabiyotining eng yirik satira ustalari Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va G‘afur G‘ulomdir. “Mehrobdan chayon” romani qahramoni Solih maxdum obrazida o‘ta xasislik, hasadgo‘ylik va laganbardorlik kabi salbiy illatlar jamlangan. Maxdumning o‘z qizini saroyga “sotishi” va uning din niqobi ostidagi dunyoqarashi satira tig‘iga olingan. “Shum bola” qissasida esa qahramonning o‘zi emas, balki u to‘qnash kelgan boylar, domlalar va “avliyolar” satirik obrazlardir. Masalan, boyning ziqnaligi yoki afyunxo‘r xo‘jalarning kirdikorlari kulgi ostiga olingan.

Asar to‘qimasida tutgan o‘rniga ko‘ra ham obrazlar turlarga bo‘linadi. Yirik hajmli asarlarda bosh va yordamchi obrazlar bo‘ladi. Asar voqealarining markazida turib, syujetni harakatga keltiradigan, yozuvchi ifodalamoqchi bo‘lgan asosiy g‘oyani o‘zida tashiydigan shaxslar bosh obraz yoki bosh qahramon deb ataladi.

Shuningdek, ba‘zan asar markazida qariyb barobar ahamiyatga ega bo‘lgan ikki yoki undan ortiq obrazlar ham bo‘lishi mumkin. Bunday obrazlar asosiy obrazlar yoki yondosh obrazlar deb ataladi. “Lolazor” romani qahramonlari bo‘lgan o‘rtamiyona yozuvchi Nazar Yaxshiboyev va doim haqiqat uchun kurashib kelgan, sofdil inson Saidqul Mardon obrazlari yondosh obrazlardir. Yozuvchi Murod Muhammad Do‘st “Lolazor” romanida Nazar Yaxshiboyev va Kalonov Xorun (Oshno) haqidagi ba‘zi ma‘lumotlarni batafsil bermaydi, ularning kimligini ro‘y-rost aytmaydi, portretini bevosita chizmaydi. Ana shunday paytda Saidqul Mardon obrazi asar markaziga roviy sifatida kirib keladi va biz bu obraz orqali yuqorida keltirilgan qahramonlarning xarakter xususiyatlarini, ularning tug‘ilib o‘sgan maskani Bulduruq qishlog‘i va undagi voqealar rivojini bilib olamiz.

Badiiy asarda ma‘lum bir g‘oyani ifodalovchi, juda kam ishtirok etgan obrazlar epizodik personajlar yoki yordamchi obrazlar deyiladi. Muallif epizodik obrazga uzoq ta‘rif bermaydi, balki uning birgina harakati yoki gapi orqali butun xarakterini ochib beradi. Epizodik obrazlar ko‘pincha bosh qahramonning qaysidir qirrasini ochishga xizmat qiladi. Murod Muhammad Do‘stning “Galatepaga qaytish” qissasi qahramonlari — Murod amaki, Raim Gaybarov, Anzirat va Qobil epizodik obrazlardir. Bu obrazlar qissaning bosh qahramoni bo‘lgan islomshunos olim Toshpo‘lat Gaybarovga haqiqatni anglashda, o‘zligini topishida va muallifning asl niyatini yuzaga chiqarishda yordam bergan obrazlardir.

Badiiy obraz va uning turlari yuzasidan olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, badiiy obraz tushunchasi adabiyotshunoslikning shunchaki tarkibiy qismi emas, balki so‘z san‘atining mavjudlik asosi va estetik voqelikni barpo etuvchi bosh mezondir. Har qanday badiiy asarning qimmati undagi hayotiy faktlarning qanchalik aniq ko‘chirilganligi bilan emas, balki o‘sha faktlarning ijodkor tafakkurida qayta ishlanib, qanchalik yuksak badiiy umumlashtirish darajasiga ko‘tarilganligi bilan belgilanadi. Binobarin, badiiy obraz muallifning dunyoqarashi,

estetik ideallari va ijtimoiy-falsafiy o'ylari mujassamlashgan murakkab strukturaviy butunlikdir. Maqolada tahlil qilinganidek, estetik reallik aynan obrazlar silsilasi orqali shakllanadi va kitobxon uchun hayotni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Obrazlar tasnifiga to'xtalganda shuni alohida ta'kidlash lozimki, realistik va romantik obrazlar o'rtasidagi farq, birinchi navbatda, voqelikka munosabatda ko'rinadi: agar realistik obraz hayotni uning barcha ziddiyatlari va ijtimoiy determinizmi bilan aks ettirsa, romantik obraz insonning botiniy hurligi va ideal sari intilishlarini ifodalaydi. Shu bilan birga, jamiyatdagi ma'naviy va ijtimoiy illatlarni fosh etishda satirik obrazlar o'ziga xos estetik qurol vazifasini o'taydi, ulardagi bo'rttirish va kinoya insonni o'z-o'zini isloh qilishga chorlaydi. Asarning kompozitsion qurilishida bosh va epizodik obrazlarning mantiqiy bog'liqligi muhim ahamiyat kasb etib, ular birgalikda asarning g'oyaviy yaxlitligini ta'minlaydi va inson xarakterining turli qirralarini ochishga xizmat qiladi.

Badiiy ijodning eng nozik nuqtalaridan biri bo'lgan prototip va obraz munosabati esa tipiklashtirish jarayonining mahsulidir. Chinakam mahoratli yozuvchi hayotiy prototipdan andaza olar ekan, uni individual xususiyatlar bilan bir qatorda muayyan davr va ijtimoiy qatlamga xos bo'lgan umumiy belgilar bilan boyitadi. Bu esa obrazning shunchaki bir shaxs tasviri emas, balki davrning umumlashgan timsoliga aylanishini kafolatlaydi. Shuningdek, badiiy obrazning ochiq tizim ekanligi uning turli davrlarda turlicha talqin qilinishiga zamin yaratadi. Har bir kitobxon va har bir yangi avlod bu obrazlarda o'z davrining muammolarini va o'zining ichki kechinmalarini ko'radi, bu esa adabiyotshunoslik tahlilining doimiy ravishda yangilanib turishini taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy obraz turlarini va ularning poetik tabiatini o'rganish milliy adabiyotning taraqqiyot darajasini anglashda poydevor bo'lib xizmat qiladi. Mukammal darajada yaratilgan obrazlar — xoh ular ijobiy, xoh salbiy yoki satirik bo'lsin — o'zida insoniyatning ma'naviy tajribasini saqlaydi va vaqt o'tishi bilan o'z dolzarbligini yo'qotmaydigan abadiy qadriyatlarga aylanadi. Ushbu maqola orqali biz badiiy obrazning naqadar serqirra hodisa ekanligini, u nafaqat yozuvchi mahoratining mahsuli, balki millatning estetik tafakkuri va madaniy merosining ajralmas qismi ekanligini isbotlashga harakat qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Umurov H. Adabiyotshunoslikka kirish. — T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. — B. 40.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. — T.: O'qituvchi, 1999. — B. 52–53.
3. Qayumov L. Tipiklik — bosh mezon // Asr va nasr. — T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. — B. 13.
4. Cho'lpon A. Uyg'onish // URL: <https://kh-davron.uz>
5. (murojaat qilingan sana: 21.04.2026). — 1922. — B. 46.
6. Dostonlar. "Kuntug'mish va Ravshan". — T.: Sharq nashriyoti, 2011. — 332 b.